

OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA KIRUVCHILAR UCHUN MENTAL  
EDUCATION O`QUV MARKAZI TOMONIDAN TUZILGAN

**REPITISION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN**

# **SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_

*F.I.O*

\_\_\_\_\_  
*IMZO*

## **FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Matematika (informatika bilan)*

*Blok 3: Fizika*

**Savollar kitobi raqami: 2001906**

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Xolboqi miskar haqidagi hikoyat quyidagi asarlardan qaysi birirfa keltirilgan?  
A) Xoja "Miftoh ul-adl"  
B) So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin"  
C) Gulxaniy "Zarbuhasal"  
D) Anbar otin "Qarolar falsafasi"
2. Siz o'z xalqingiz, Vataningiz, millatingizning ko'z qarochig'larisiz, ammo unutmangki, tanbal, daqqi, bezori kishi ma'naviy nogiron degan so'z.  
Ushbu gap qo'shma gapning qaysi turiga kiradi?  
A) bog'langan qo'shma gap  
B) aralash murakkab qo'shma gap  
C) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap  
D) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gap
3. Qaysi asarda hamma kasblarning ham bozori kasod bo'lgani haqida gap boradi?  
A) "Shum bola"      B) "Bemor"  
C) "Bolaning ko'ngli podsho"  
D) "Mening o'g'rigina bolam"
4. **Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan,  
Yerda qolsang, oftob bo'lib kulmagaysan,  
Qachon belni mahkam tortib bog'lagaysan?  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?**  
Ushbu she'riy parchada olmoshning necha turi qatnashgan?  
A) 3      B) 1      C) 2      D) 4
5. "Kuntug'mish" dostonida Gurkiboy bilan Mohiboy Zangar shahriga kirib kelganida dastlab kimga duch kelishadi?  
A) Xolmo'min yasovulboshiga  
B) Kuntug'mishga      C) Avliyoyi Qoraxonga  
D) Xolbekaga
6. Ajratib ko'rsatilgan so'z haqidagi to'g'ri hukmni toping. **Qur-ey! Qur-ey! Jimgina quloq soldi.**  
A) taqlid so'z      B) undov so'z      C) modal so'z  
D) mustaqil so'z
7. Quyida berilgan gapda nechta shaxs oti qatnashgan?  
**Bahor oxirlab qolayotgan kunlarda shahzoda Abusaid qirq yigiti bilan ovga chiqdi.**

A) 4ta      B) 3 ta      C) 1 ta      D) 2 ta

8. Holat ravishlarini aniqlang.  
A) tez, darhol      B) arang, qasddan  
C) xiyol, oz      D) dastlab, hanuz
9. **Nega menim qulog'im da tun va kun  
Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?**  
Parchada kompozitsion usul bilan yasalgau so'z haqida berilgan hukmlarning qaysi biri noto'g'ri?  
A) kompozitsion usul bilan yasalgan so'z faqat yopiq bo'g'inlardan iborat  
B) kompozitsion usul bilan yasalgan so'z ot turkumiga mansub  
C) kompozitsion usul bilan yasalgan so'zning tarkibi "ot+ot" ko'rinishda  
D) kompozitsion usul bilan yasalgan so'z gapda aniqlovchi bo'lib kelgan
10. Quyidagi misralarda **o'g'** so'zi qanday ma'noda qo'llangan?  
**Qaysi erda bo'lsa uqush birla o'g,  
Ani er atagil, necha o'gsa o'g.  
Uqush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,  
Yavuz ersa kaz te, kichig ersa o'g.**  
A) aql, maqtov, bag'ishla  
B) aql, o'rgan, maqta  
C) bilim, aql, maqtav  
D) aql, maqta, ulug'la
11. Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan so'zlar...  
A) sof ko'makchi sanaladi  
B) bog'lovchi sanaladi  
C) vazifadosh ko'makchi sanaladi  
D) ergashtiruvchi bog'lovchi sanaladi
12. E.Vohidov o'z she'rlaridan birida qachon "paytavaning salla". "aza chog'ida yalla" bo'lishini qayd etib o'tgan?  
A) nafs sabrdan ustun kelganda  
B) haqiqat singanda  
C) o'zbek Navoiyni o'qimay qo'yganda  
D) shirin yolg'onga aldanganida
13. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida jadidlar tomonidan haftada ikki marta zorg'a chiqadigan gazetani topib kelib keyin afsus chekkan qahramon kim edi?  
A) Xolmat      B) Hakimjon      C) Mirzabobo  
D) Ummatali

14. **Mana shu tirranchalarni himoya qilmaganim uchun boya rosa po'staginmi qoqishdi.**  
Ushbu gapda nechta so'z birikmasi mavjud?  
A) 4 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta
15. **Kimki tinch yashashni istasa, pastkash odam bilan hech qachon do'stlashmaydi.**  
Ushbu gapda so'z vasovchi qo'shimchalar necha o'rinda qo'llangan?  
A) 2 B) 5 C) 4 D) 3
16. Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida yetti iqlim shahanshoi Bahrain shanba kuni qaysi rangdagi qasrda qaysi hikoyani tinglaydi?  
A) gulgun qasrda Shoh Jo'na va Mas'ud hikoyasini  
B) qora qasrda Farrux va saxiy Axiy hikoyasini  
C) yashil qasrda Sa'd jasoratini  
D) sariq qasrda Zayd Zahhob sarguzashtini
17. Qaysi qo'shma gapda ko'chirma ma'noda sinonimlik hosil qilgan so'zlar mavjud?  
A) O'qituvchining oldiga shartta kiramanda, tez-tez gapirih tashlayman.  
B) Ana, hech narsa bo'lmagandek, yayrab-quv nab, ochilib-sochilib yurishibdi.  
C) Meni yomou ranjitding, sendan qattiq xafaman.  
D) Muyassar bo'lmasa gar yor visoli, balodan totlidir hijronning boli.
18. Qaysi gapda uyushiq bo'laklarning navbatmanavbatligi ifodalangan.  
A) Hammasini tinglardim, ammo o'xshashini topmasdim aslo.  
B) Na sen, na men buning kafolatini olganmiz.  
C) Yo kitob. yo ruchka olaman.  
D) Goh kuladi, goh yig'laydi.
19. Komil Xorazmiyning "Qaysi falak burjining mehri puranvorisan..." deb boshlanuvchi el orasida mashhur she'ri qaysi janrda yozilgan.  
A) g'azal B) musamman  
C) muxammas D) musaddas
20. Ogahiy qalamiga mansub quyidagi baytda qaysi san'at qo'llangan?  
**Boqib ko'z ichidin pinhon fosh etdilar tag'ofillar**  
**Yo'g'-u borim hamul pinhon ila foshingdin aylansun.**  
A) ruju B) talmeh C) ishtiyoq D) tazod
21. Eski o'zbek adabiy tilidagi "**pesha**" so'zining ma'nosini aniqlang.  
A) kasb, hunar B) ayon, ravshan  
C) go'zal, latofatli D) sog'lomlik
22. Kesimni yasama so'z bilan ifodalangan bog'langan qo'shma gapni belgilang.  
A) Odam bahosizdir, ammo uni mehnat baholaydi.  
B) Mehnat orom berib uxlatadi, kamchilik esa chimchilab uyg'otadi.  
C) Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi.  
D) Mehnatni hurmatlasak, u bizni e'zozlaydi.
23. Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" hikoyasida yovvoyi yo'rg'aga kim birinchi bo'lib tamg'a bosadi?  
A) Jek B) Jo Kalon C) Foster D) Tom
24. Qaysi so'zlarga ikkitadan shakldosh qo'shimcha qo'shilgan?  
1) yashang; 2) bilimli; 3) o'zbekchilik; 4) to'plam; 5) kiyinmoq; 6) tinchi; 7) qo'lyozma  
A) 1, 4, 5, 6 B) 2, 4, 6, 7  
C) 2, 3, 5, 6 D) 1, 6, 7
25. Quyidagi gapda asosi bir bog'indan iborat so'zlar sonini toping.  
**Eldan ketib el bo'lganni kim biladi?**  
A) 5 B) 3 C) 4 D) 6
26. Qaysi gapda ikkita affiksatsiya, bitta kompozitsiya usulida yasalgan fe'l bor?  
A) Hayotning ko'p issiq-sovug'ini ko'rib ... saboq olib, tajribamni oshirdim. Do'st-u dushman bilan murosa qilib yashadim.  
B) Biror mamlakatda jabr-zulm va fisq-fasod kuchayib ketarkan, asl podsholar adolat o'rnatib, fisq-fasodni, zulmni yo'qotishi lozim.  
C) Podshoh fikr olsin, Qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni o'z vaqtida ishlatsin.  
D) Chin do'st uldirkim do'stidan hech qachon ranjmaydi, agar ranjisa ham uzrini qabul qiladi.
27. Qaysi gapda daraja-miqdor holi ishtirok etgan?  
A) Bu ko'pchilikning fikri edi.  
B) Ko'p ota-onalar buni bilishmadi.  
C) Paxta to'g'risida ko'p yozdi.  
D) Bu voqea ko'plarni quvontirdi
28. Qaysi gapda hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga kiruvchi undoshlardan tashkil topgan yasama sifat berilgan?  
A) Sizday sofdil, mehribon insonni

uchratganimdan xursandman.

B) Eng yorqin va samimiy tuyg'ular hamrohingiz bo'lsin!

C) Oliyjanob insonlar har yerda ardoqlidirlar.

D) Bu xushovoz xonandaning yoqimli qo'shiqlari barchaga manzar.

29. Sanasak, muvaffaqiyatlar ko'p, ammo ular orasida eng muhimi, hamma xalqqa, hamma elga zarur bo'lgan ne'mat - Tinchlik bayrog'i bilan yangi asrning issiq, nurli quchog'iga talpinapmiz.

Ushbu gapda nechta so'z so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarishga uchragan?

A) 3 ta B) 1 ta C) 2 ta D) 4 ta

30. Turkiston o'lkamiz vodiylari (\*) saholari keng (\*) tog'lari buyuk (\*) aholisi turk (\*) o'zbekdir.

(\*) belgisi o'rniga qo'yiladigan tinish belgilarini toping.

A) vergul, vergul, vergul, vergul

B) vergul, vergul, vergul, tire

C) vergul, vergul, nuqtali vergul, tire

D) vergul, vergul, nuqtali vergul, vergul

### MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)

31.  $\frac{0,625 \cdot 6,75^2 - 3,25^2 \cdot 0,625}{\sqrt{3,5^2 + 7 \cdot 2,75 + 2,75^2}}$  ni hisoblang.

A) 35 B) 53 C) 350 D) 3,5

32.  $\sqrt{x^{4 \lg x}} < 10x$  tengsizlikni yeching.

A) (1; 10) B)  $\left(-\frac{1}{2}; 1\right)$

C)  $\left(\frac{1}{\sqrt{10}}; 10\right)$  D) (0,1; 10)

33. Ikkita doira radiuslari 1:2 nisbatda. Katta doira aylanasining uzunligi  $8\pi$ . Kichik doira yuzini toping.

A)  $\pi$  B)  $8\pi$  C)  $4\pi$  D)  $2\pi$

34. Yuzi  $120 \text{ sm}^2$ , diagonali esa  $17 \text{ sm}$  bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning tomonlarini (sm) toping.

A) 12; 10 B) 15; 8 C) 30; 4 D) 16; 12

35.  $\vec{a}(1; 4; 2\sqrt{2})$  vektorga qarama-qarshi yo'nalgan birlik vektorni toping.

A)  $\vec{n}\left(\frac{1}{5}; \frac{4}{5}; -\frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$  B)  $\vec{n}\left(-\frac{1}{5}; \frac{4}{5}; \frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$

C)  $\vec{n}\left(-\frac{1}{5}; -\frac{4}{5}; -\frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$  D)  $\vec{n}\left(\frac{1}{5}; -\frac{4}{5}; \frac{2\sqrt{2}}{5}\right)$

36.  $y = ax^2 + (a-1)x + 3$  parabolaning uchi  $y$  o'qi ustida bo'lsa,  $a$  ni toping.

A) 1 B) 0 C) 2 D) 3

37.  $y = -\frac{x^3}{3} + 3x^2 - 5x - 4$  funksiyaning maksimum nuqtasi qaysi oraliqda yotadi?

A) (1;3) B) (3;7) C) (-1;1) D) (-3;0)

38.  $\left[ \frac{x^3 + y^3}{xy^3} : \left( \frac{x-y}{y^2} + \frac{1}{x} \right) \right] : \frac{x(x-y)^2 + 4x^2y}{x+y}$

ifodani soddalashtiring.

A)  $\frac{1}{xy}$  B)  $\frac{1}{x+y}$  C)  $\frac{1}{x}$  D)  $xy$

39.  $\begin{cases} \frac{x+3}{3-x} < 2 \\ x^3 < 16x \\ 4 \geq x^2 \end{cases}$  tengsizliklar sistemasi yeching.

A) (3;5) B) (0;1) C) (4;6] D) [2;3]

40.  $\frac{|\sin x|}{\sin x} = 1$  tenglamani yeching.

A)  $\left(\frac{\pi}{2} + 2\pi k; \frac{3\pi}{2} + 2\pi k\right), k \in \mathbb{Z}$  B)  $\emptyset$

C)  $(-\infty; \infty)$  D)  $(2\pi k; \pi + 2\pi k), k \in \mathbb{Z}$

41.  $4n - 4 \in N$  son 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 10 va 20 ga qoldiqsiz bo'linsa,  $n$  ning eng kichik natural qiymatini toping.

A) 31 B) 28 C) 25 D) 27

42. Cheksiz kamayuvchi ishorasi almashinuvchi geometrik progressiyada ketma-ket kelgan uchta hadining yig'indisi  $-21$  ga, ko'paytmasi  $729$  ga teng bo'lsa, shu sonlarni toping?

A) -27; 9; -3 B) -28; 14; -7

C) -3; 9; -27 D) 27; -9; 3

43. Radiusi  $R$  ga teng bo'lgan aylanaga tashqi chizilgan muntazam  $n$ -burchakning tomoni  $b$  ga teng bo'lsa, shu aylanaga ichki chizilgan muntazam  $n$ -burchakning tomonini toping.

- A)  $\frac{2bR}{\sqrt{4R^2 + b^2}}$       B)  $\sqrt{R^2 - \frac{b^2}{4}}$   
 C)  $\sqrt{R^2 + \frac{b^2}{4}}$       D)  $\frac{2bR}{\sqrt{4R^2 - b^2}}$

44. Balandligi 12 ga, asosining radiusi 5 ga teng bo'lgan konusga ichki chizilgan oltiburchakli muntazam piramidaning katta diagonal kesimi yuzini hisoblang.

- A) 50    B) 38    C) 60    D) 72

45. Bir ishchi ishning 10% ini  $t$  vaqtda, ikkinchi ishchi 20% ini  $t+1$  vaqtda bajaradi. Agar ikkalari birga ishlasa, bu ishni qancha vaqtda bajaradi?

- A)  $\frac{5t(t+1)}{3t+1}$       B)  $\frac{5t(2t+1)}{t+1}$   
 C)  $\frac{10t(t+1)}{3t+1}$       D)  $15t+5$

46. Arifmetik progressiyada  $a_1 + a_4 = 26$ , ikkinchi hadi esa beshinchi hadidan 6 ga ko'p. Shu progressiyaning to'rtinchi va sakkizinchi hadlari yig'indisini toping.

- A) 10    B) 12    C) 15    D) 7


47. Tekislikdan a uzoqlikda joylashgan nuqtadan tekislik bilan  $30^\circ$  li burchak hosil qiluvchi ikkita o'g'ma o'tkazilgan. Ularning tekislikdagi proyeksiyalari o'zaro  $120^\circ$  li burchak hosil qilsa, og'malarning uchlari orasidagi masofani aniqlang.

- A)  $\sqrt{3}a$     B)  $3a$     C)  $2a$     D)  $\sqrt{2}a$

48. Uchburchakli piramidaning yon qirralari o'zaro perpendikular va uzunliklari mos ravishda  $\sqrt{70}$ ,  $\sqrt{99}$  va  $\sqrt{126}$  ga teng. Piramidaning hajmini hisoblang.

- A)  $2\sqrt{110}$       B)  $21\sqrt{55}$   
 C)  $16\sqrt{33}$       D)  $4\sqrt{68}$

49. Agar chizmada  $y = ax^2 + bx + c$  funksiyaning grafigi tasvirlangan bo'lsa, quyidagi munosabatlardan qaysi biri to'g'ri? ( $D=b^2-4ac$ )



- A)  $ac < 0$     B)  $bD > 0$     C)  $ab > 0$     D)  $aD > 0$

50. To'g'ri burchakli uchburchakning perimetri 24 sm ga, yuzi  $24 \text{ sm}^2$  ga teng bo'lsa, unga tashqi chizilgan doiraning yuzini ( $\text{sm}^2$ ) toping.

- A)  $30\pi$     B)  $25\pi$     C)  $35\pi$     D)  $20\pi$

51.  $\begin{cases} 4x - y = 6 \\ 2y + 5z = 11 \\ x - 2z = -5 \end{cases}$  bo'lsa,  $x+y-z$  ni toping?

- A) 3    B) -4    C) -6    D) -1

52.  $2^{x^2+1} = 1 - x^8$  tenglamani yeching.

- A) 1    B) tenglamani oldizga ega emas  
 D) 2    C) -1

53.  $\cos\left(7x - \frac{\pi}{8}\right) + \sin\left(7x - \frac{\pi}{8}\right) \geq \sqrt{2}$

tengsizlikning  $[0; \pi]$  kesmada nechta ildizi bor?

- A) 4 ta    B) 1 ta    C) 3 ta    D) 5 ta

54.  $\int_0^2 \left(x^2 - 2x + 2\frac{1}{2}\right) dx$  ni hisoblang.

- A)  $3\frac{2}{3}$     B)  $4\frac{2}{3}$     C)  $1\frac{2}{3}$     D)  $2\frac{2}{3}$

55.  $\frac{\frac{1}{2}}{\frac{1}{3} + \frac{1}{3}} = \frac{m}{n}$  tenglikda  $m$  va  $n$  lar

$$\frac{\frac{1}{4} + \frac{1}{4} + \frac{1}{4}}{\frac{1}{4} + \frac{1}{4} + \frac{1}{4}}$$

o'zaro tub sonlar bo'lsa,  $m + 2n$  ni toping.

- A) 41    B) 40    C) 38    D) 42

56. Elektron hisoblash mashinalarining ikkinchi avlodida kiritish-chiqarish nima asosida amalga oshirilgan?

- A) perfokarta, magnit baraban  
 B) videoterminal sistemasi  
 C) rangli grafik display    D) CD-ROM

57. Quyidagi o'nlik sanoq sistemasidagi sonni ikkilik sanoq sistemasida tasvirlang.  
1963  
A) 1100000011 B) 11010011000  
C) 11110101011 D) 11101101001
58. MS Excel 2003 dasturida A1=5, B3=4 bo'lsa, "=CTEПEHH(A1; B3)" natajani toping.  
A) 20 B) 1,25 C) 1024 D) 625
59. HTML tilida 4 ta ustun va 3 satrdan iborat jadval tuzishda nechta <tr> va <td> teglaridan foydalaniladi?  
A) 4 ta <tr>, 12 ta <td> B) 3 ta <tr>, 12 ta <td>  
C) 3 ta <tr>, 4 ta <td> D) 4 ta <tr>, 3 ta <td>
60. Quyidagi Paskal dasturi lavhasi bajarilishi natijasida qora fonli ekranda qanday shakl hosil bo'lgan:  
Setcolor(0); Line(100,100,10,10);  
Setcolor(15);  
Rectangle(10,10,100,100);  
A) kesma B) burchak  
C) to'rtburchak D) hech qanday

### FIZIKA

61. Massasi 270 g bo'lgan aluminiy buyumda qancha atom bor? Aluminiyning nisbiy molekular massasi  $M_r=27$  g/mol. Avagadro soni  $N_A=6 \cdot 10^{23}$  1/mol.  
A)  $10^{25}$  B)  $6 \cdot 10^{23}$  C)  $6 \cdot 10^{24}$  D)  $2 \cdot 10^{24}$
62. Suv bilan to'ldirilgan keng idish devoridagi 0,1 m balandlikga joylashgan, kesim yuzasi 2 sm<sup>2</sup> bo'lgan teshikdan suv oqib chiqmoqda. Idishga yuqoridan suv tushirilgan trubadan keladigan suv tufayli idishdagi suv sathi o'zgarmay turibdi. Teshikdan chiqayotgan suv idish chetidan 0,5 m masofada, idish tubi bilan baravar sathda joylashgan nuqtaga yetib borishi uchun idishga har sekundda qancha suv (l) qo'yilishi kerak?  
A) 1,41 B) 0,95 C) 1,30 D) 0,71
63. Ipining uzunligi 90 sm ga teng bo'lgan matematik mayatnikning tebranish davri (s) taxminan qancha bo'ladi?  $g=10$  m/s<sup>2</sup>.  
A) 1,9 B) 2 C) 1 D) 1,8
64. O'tkazgichdagi tok kuchi 12 mA bo'lsa, shu o'tkazgichdan 20 min davomida o'tgan zaryad miqdorini (C) toping.  
A) 2,88 B) 100 C) 14,4 D) 444
65. Massalari 2 kg va 6 kg bo'lgan ikkita noelastik jism bir-biriga qarab 2 m/s tezlik bilan harakatlanmoqda. Bu jismlarning har birining to'qnashuvdan keyingi tezligi modulini (m/s) va yo'nalishini toping.  
A) 2 va 6; qarama-qarshi yo'nalishida  
B) 2; katta massali jism yo'nalishida  
C) 1; katta massali jism yo'nalishida  
D) 1; kichik massali jism yo'nalishida
66. Agar bo'yoq pultidan 25 m/s tezlik bilan suyuq bo'yoq oqib chiqayotgan bo'lsa, kompressor bo'yoq pultida qanday bosim (Pa) hosil qiladi. Bo'yoqning zichligi 800 kg/m<sup>3</sup>.  
A)  $10^5$  B)  $2 \cdot 10^5$  C)  $2,5 \cdot 10^5$  D)  $1,5 \cdot 10^5$
67. Agar shishadan tayyorlangan qavariq linzaning fokus masofasi shu linzaning egrilik radiusiga teng bo'lsa, shishaning sindirish ko'rsatkichi nimaga teng?  
A) 1,5 B) 2 C) 3 D) 1,2
68. Agar tebranish konturidagi g'altak induktivligi 0,012 H va kondensator sig'imi 25  $\mu$ F bo'lsa, tebranishlar davrini (ms) toping.  
A) 1,57 B) 2,1 C) 3,43 D) 6,28
69. Teploxodning daryo oqimi bo'ylab harakat tezligi 21 km/soat, daryo oqimiga qarshi tezligi 17 km/soat. Daryodagi suvning oqim tezligini (km/soat) aniqlang.  
A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
70. Yassi-parallel plastinkadan o'tganda nurning siljish masofasi nimalarga bog'liq?  
A) plastinka qalinligiga  
B) plastinka qalinligiga, sindirish ko'rsatkichi va yorug'lik nurning tushish burchagiga  
C) nurning og'ish burchagiga  
D) plastinka materialiga
71. Atom holatidagi kislorod zarrachalarning 138°C dagi o'rtacha kvadratik tezliklarini (m/s) aniqlang.  $M_{\text{atom}}=16$  g/mol,  $R=8,3 \frac{J}{K \cdot mol}$   
A) 800 B) 650 C) 540 D) 840
72. Tebranish konturdagi kondensatorning sig'imi  $C_1=10^{-6}$  F bo'lganda elektromagnit tebranishlar chastotasi  $f_1=400$  Hz.  $C_1$  kondensatorga parallel qilib  $C_2$  kondensator ulanganda tebranishlar chastotasi  $f_2=100$  Hz bo'ladi.  $C_2$  sig'imi aniqlang. Kontur qarshiligini hisobga olmag.  
A)  $20 \cdot 10^{-6}$  B)  $30 \cdot 10^{-6}$  C)  $15 \cdot 10^{-6}$  D)  $25 \cdot 10^{-6}$

- 73.** Samolyotning tezligi poyezdnikidan 15 marta katta, poyezdning massasi esa samolyotnikidan 15 marta katta. Nimaning kinetik energiyasi qancha katta?  
A) samolyotniki 15 marta katta  
B) poyezdniki 10 marta katta  
C) samolyotniki 10 marta katta  
D) poyezdniki 15 marta kata
- 74.** 5 m chuqurlikdan toshni suv sirtiga tekis ko'tarish uchun 45 kJ ish bajarilgan. Toshning zichligi  $2500 \text{ kg/m}^3$ . Toshning hajmi ( $\text{m}^3$ ) qanchaga teng?  
A) 0,6 B) 0,36 C) 0,036 D) 6
- 75.** Agar bola 2 soatda 720 kJ ish bajargan bo'lsa, bola quvvatining (W) foydali qismini toping.  
A) 36 B) 360 C) 10 D) 100
- 76.** Atrof-muhit bilan issiqlik miqdori almashmasdan ro'y beradigan jarayonga qanday jarayon deyiladi.  
A) adiabatik B) izotermik  
C) izoxorik D) izobarik
- 77.** Havoda  $19^\circ\text{C}$  da suv bug'ining parsial bosimi 1,1 kPa edi. Nisbiy namlikni toping (%).  $19^\circ\text{C}$  da to'yingan bug' bosimi 2,2 kPa.  
A) 50 B) 30 C) 40 D) 25
- 78.** EYuK  $\varepsilon_1 = 14 \text{ V}$ , qisqa tutashuv toki 7A bo'lgan manba bilan EYuK  $\varepsilon_2 = 6 \text{ V}$ , qisqa tutashuv toki 3A bo'lgan manbalarning bir xil ishorali potensialga ega bo'lgan qutblari tutashtirilib parallel ulangan manbalar batareyasi hosil qilindi va unga  $9 \Omega$  qarshilikka ega bo'lgan resistor ulandi. Rezistor uchlaridagi potensiallar farqini (V) toping.  
A) 6 B) 10 C) 14 D) 9
- 79.** Qarshiliklar  $R_1=180 \Omega$  va  $R_2=360 \Omega$  bo'lgan ikkita chiroq  $U=120 \text{ V}$  kuchlanishli tarmoqqa parallel ulandi. Chiroqlarning har birida qanday quvvat ajraladi?  
A)  $P_1 = -80 \text{ W}$ ;  $P_2=50 \text{ W}$  B)  $P_1=80 \text{ W}$ ;  $P_2=60 \text{ W}$   
C)  $P_1=60 \text{ W}$ ;  $P_2=80 \text{ W}$  D)  $P_1=80 \text{ W}$ ;  $P_2=40 \text{ W}$
- 80.** Massasi 10 t bo'lgan trolleybus joyidan qo'zg'alib, 50 m masofada 10 m/s tezlikka erishdi. Agar tortish kuchi 14 kN ga teng bo'lsa, qarshilik koeffitsiyenti toping.  $g=9,8 \text{ m/s}^2$   
A) 0,07 B) 0,06 C) 0,1 D) 0,04
- 81.** Yuqoriga tik yo'nalishda 30 m/s tezlik bilan otilgan jismning 4 s dan keying tezligi uning boshlang'ich tezligidan necha marta kichik ?  
A) 2 B) 1 C) 4 D) 3
- 82.** Diametri 0,4 sm bo'lgan sterjenda  $1,5 \cdot 10^8 \text{ Pa}$  mexanik kuchlanish hosil bo'lishi uchun o'qi bo'ylab qo'yiladigan kuch (N) qancha bo'lishi kerak?  
A) 1924 B) 1804 C) 1824 D) 1884
- 83.** Metall o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasini o'zgartimasdan massasini 2 marta oshirsak, uning solishtirma elektr qarshiligi qanday o'zgaradi ?  
A) o'zgarmaydi B) 2 marta kamayadi  
C) 2 marta ortadi D) 4 marta ortadi
- 84.** Prujinaning 4 mm cho'zish uchun 0,02 J ish bajarish kerak. Shu prujinaning 4 sm cho'zish uchun qancha ish (J) bajarish kerak ?  
A) 8 B) 0,8 C) 20 D) 2
- 85.**  ${}_{13}^{27}\text{Al} + {}_0^1n \Rightarrow {}_{11}^{24}\text{Na} + ?$  yadro reaksiyasida qanday zarra uchib chiqadi ?  
A)  $\beta$ -zarracha B) rentgen nuri  
C)  $\alpha$ -zarracha D)  $\gamma$ -zarracha
- 86.** Zaryaddan 5 sm uzoqlikda elektr maydonining kuchlanganligini  $1,5 \cdot 10^5 \text{ V/m}$  bo'lsa, elektr maydonini hosil qilgan zaryadni toping (C)?  
A)  $6,5 \cdot 10^5$  B)  $4,2 \cdot 10^{-8}$   
C)  $3,4 \cdot 10^{-6}$  D)  $7,5 \cdot 10^5$
- 87.** Prujinaga mahkamlangan shar muvozanat vaziyatidan chiqarib qo'yib yuborildi. Prujina muvozanat vaziyatidan amplitudaning yarmigacha ( $v_1$ ) va to'rdan bir qismigacha ( $v_2$ ) uzoqlashgan nuqtalardagi tezliklari nisbati  $v_1/v_2$  ni toping. Tebranishlar kosinus qonuni asosida ro'y bermoqda.  $\sin 30^\circ = 1/2$ ;  
 $\sin 82^\circ = 0,99$ ;  $\sin 60^\circ = \sqrt{3}/2$ ;  $\sin 75^\circ = 0,96$ .  
A)  $\sqrt{3}/2$  B) 2 C)  $\sqrt{5}/5$  D)  $\frac{2}{\sqrt{5}}$
- 88.** Ikki kosmik kema  $v_1=v_2=0,75c$  tezlik bilan qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanmoqda. Birining 2-siga nisbatan tezligi qanday?  
A) 0,9c B) 0,96c C) c D) 0,86c

89. Massasi va boshlang'ich temperaturasi bir xil bo'lgan vodorod va geliy gazlari 70 K ga qizdirildi. Vodorodni qizdirishda bajarilgan ish  $A_1$  va geliy qizdirishga bajarilgan ish  $A_2$  lar qanday munosabatda bo'ladi? ( $P=\text{const}$ )
- A)  $A_2=4A_1$       B)  $A_1=A_2$   
C)  $A_2=2A_1$       D)  $A_1=2A_2$

90. Magnit maydonning elektr maydoni bilan bog'liqligini tajribada birinchi bo'lib aniqlagan olimni ko'rsating.
- A) Ersted    B) Beruniy    C) Amper    D) Gilbert











**JAVOBLARI**

<b>ONA TILI VA ADABIYOT</b>		<b>MATEMATIKA (INFORMATIKA BILAN)</b>		<b>FIZIKA</b>	
<b>1</b>	<b>C</b>	<b>31</b>	<b>D</b>	<b>61</b>	<b>C</b>
<b>2</b>	<b>B</b>	<b>32</b>	<b>C</b>	<b>62</b>	<b>D</b>
<b>3</b>	<b>D</b>	<b>33</b>	<b>C</b>	<b>63</b>	<b>A</b>
<b>4</b>	<b>C</b>	<b>34</b>	<b>B</b>	<b>64</b>	<b>C</b>
<b>5</b>	<b>A</b>	<b>35</b>	<b>C</b>	<b>65</b>	<b>C</b>
<b>6</b>	<b>B</b>	<b>36</b>	<b>A</b>	<b>66</b>	<b>C</b>
<b>7</b>	<b>D</b>	<b>37</b>	<b>B</b>	<b>67</b>	<b>A</b>
<b>8</b>	<b>A</b>	<b>38</b>	<b>A</b>	<b>68</b>	<b>C</b>
<b>9</b>	<b>C</b>	<b>39</b>	<b>B</b>	<b>69</b>	<b>D</b>
<b>10</b>	<b>D</b>	<b>40</b>	<b>D</b>	<b>70</b>	<b>B</b>
<b>11</b>	<b>A</b>	<b>41</b>	<b>A</b>	<b>71</b>	<b>A</b>
<b>12</b>	<b>C</b>	<b>42</b>	<b>A</b>	<b>72</b>	<b>C</b>
<b>13</b>	<b>B</b>	<b>43</b>	<b>A</b>	<b>73</b>	<b>A</b>
<b>14</b>	<b>D</b>	<b>44</b>	<b>C</b>	<b>74</b>	<b>A</b>
<b>15</b>	<b>C</b>	<b>45</b>	<b>C</b>	<b>75</b>	<b>D</b>
<b>16</b>	<b>B</b>	<b>46</b>	<b>B</b>	<b>76</b>	<b>A</b>
<b>17</b>	<b>C</b>	<b>47</b>	<b>B</b>	<b>77</b>	<b>A</b>
<b>18</b>	<b>D</b>	<b>48</b>	<b>B</b>	<b>78</b>	<b>D</b>
<b>19</b>	<b>C</b>	<b>49</b>	<b>B</b>	<b>79</b>	<b>D</b>
<b>20</b>	<b>D</b>	<b>50</b>	<b>B</b>	<b>80</b>	<b>D</b>
<b>21</b>	<b>A</b>	<b>51</b>	<b>B</b>	<b>81</b>	<b>D</b>
<b>22</b>	<b>A</b>	<b>52</b>	<b>B</b>	<b>82</b>	<b>D</b>
<b>23</b>	<b>D</b>	<b>53</b>	<b>A</b>	<b>83</b>	<b>A</b>
<b>24</b>	<b>A</b>	<b>54</b>	<b>A</b>	<b>84</b>	<b>D</b>
<b>25</b>	<b>D</b>	<b>55</b>	<b>A</b>	<b>85</b>	<b>C</b>
<b>26</b>	<b>D</b>	<b>56</b>	<b>A</b>	<b>86</b>	<b>B</b>
<b>27</b>	<b>C</b>	<b>57</b>	<b>C</b>	<b>87</b>	<b>-</b>
<b>28</b>	<b>D</b>	<b>58</b>	<b>D</b>	<b>88</b>	<b>B</b>
<b>29</b>	<b>C</b>	<b>59</b>	<b>A</b>	<b>89</b>	<b>D</b>
<b>30</b>	<b>B</b>	<b>60</b>	<b>C</b>	<b>90</b>	<b>A</b>